

ISSN: 2181-1040

DOI: 10.26739/2181-1040

tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6
ISSUE 2**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 2

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 2



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFOVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Aleksandr Naymark

MINGO‘RIK BITIKTOSHI: O‘RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHIKKA OID YODGORLIGIMI?.....7

2. Nazarova Shahnozaxon

MILLIY HURRIYAT SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI.....23

3. Yusupova Dildora

“ISLOM MODERNIZMI” VA “ISLOMNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI.....36

4. Hakimov Nazar

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION
YONDASHUV.....44

5. Usarova Feruza

JADIDLAR G‘OYASINING YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANG
JIHATLARI.....52

6. Amirov Azamat

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI RAQAMLASHTIRISH
MASALALARI.....60

7. Филиппов Ольгерд

ЦИФРОВОЙ ГУМАНИЗМ КАК ПАРАДИГМА ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ.....66

8. Ashrapov Ravil

READING CULTURE IN MODERN LIFE OF UZBEKISTAN.....79

9. Muminkhujayev Abrorkhuja

INTEGRATING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY AND AI TO ENHANCE WRITING AND
SPEAKING SKILLS OF DIGITAL RESIDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS.....87

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040
 www.tadqiqot.uz

Nazarova Shahnozaxon Ibadullayevna,
 filologiya fanlari doktori, dotsent
 O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi
 E-mail: nazarxonova@mail.ru
 ORCID: 0000-0003-3730-1264
 Science ID: DTN-0225-0035

MILLIY HURRIYAT SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17418747>

ANNOTATSIYA

Yangi badiiy tafakkurning uyg'onishi, buning natijasi o'laroq, milliy she'r masalasining o'rta qo'yilishi – davr ijodkorlaridan yangi ifoda shakllarini topishni talab qilar edi. Bu, avvalo, badiiy g'oyani ifoda etuvchi poetik obrazga yangicha yondashish talabi edi. Mazkur maqolada ayni masalaga e'tibor qaratamiz.

Adabiy vorislik shaklda va mazmunda aks etadi. Vazn, ritm, qofiya tizimlariga ergashuv shakl jihatdan; g'oya, poetik obrazlarga ergashish bo'lsa, mazmun tomondan vorislikdir. Sharq adabiyoti mana shu qat'iy an'analar ichida yangilik yaratish tamoyiliga qurilgan va shu asosda adabiyot tarixida tadrijiy taraqqiyot zanjiri hosil qilinadi. XX asr boshlaridagi she'riyat ham shakl, ham mazmun jihatidan yangilanish bosqichiga kirdi. Ammo ijtimoiy hayot, hurriyat g'oyasi sabab mazmun shakldan ilgarilab ketdi. Vazn, qofiya sistemalariga bo'ysunmaydigan poetik obrazlar tizimi mana shu mazmunni o'zida ifoda etdi.

Kalit so'zlar: milliy hurriyat adabiyoti, milliy she'r, adabiy vorislik, shakl va mazmun, poetik obraz, timsol.

Nazarova Shahnozaxon Ibadullayevna,
 doctor of philological sciences, associate professor
 The Alisher Navoi State Museum of Literature of
 Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
 E-mail: nazarxonova@mail.ru

**THE POETICS OF TRADITIONAL SYMBOLS IN NATIONAL-LIBERATION
 POETRY**

ABSTRACT

The awakening of a new artistic thought, and as a result, the emergence of the issue of national poetry, required the creators of the era to find new forms of expression. This, first of all, was a demand for a new approach to the poetic image expressing the artistic idea. In this article, we will focus on this issue.

Literary succession is reflected in form and content. Following the systems of meter, rhythm, rhyme is a form; following the idea, poetic images is a succession in terms of content. Eastern literature is built on the principle of creating innovation within these strict traditions, and on this basis

a chain of gradual development is formed in the history of literature. Poetry at the beginning of the 20th century entered a stage of renewal in terms of both form and content. However, due to social life and the idea of freedom, content moved ahead of form. The system of poetic images, which is not subject to the systems of meter and rhyme, expressed this content.

Key words: milliy hurriyat adabiyoti (national-liberation poetry), milliy she'r (national poem), literary succession, form and content, poetic image, symbol.

Назарова Шахнозахон Ибадуллаевна,
доктор филологических наук, доцент
Государственный музей литературы имени Алишера Навои
Академии наук Республики Узбекистан
E-mail: nazarxonova@mail.ru

ПОЭТИКА ТРАДИЦИОННЫХ СИМВОЛОВ В НАЦИОНАЛЬНО-ОСВОБОДИТЕЛЬНОЙ ПОЭЗИИ

АННОТАЦИЯ

Пробуждение новой художественной мысли и, как следствие, возникновение проблемы национальной поэзии потребовали от творцов эпохи поиска новых форм выражения. Это, прежде всего, было требованием нового подхода к поэтическому образу, выражающему художественную идею. В данной статье мы сосредоточимся на этом вопросе.

Литературная преемственность отражается в форме и содержании. Следование системам метра, ритма, рифмы – это форма; следование идее, поэтические образы – это преемственность в содержании. Восточная литература построена по принципу создания новаторства в рамках этих строгих традиций, и на этой основе в истории литературы формируется цепь постепенного развития. Поэзия в начале XX века вступила в период обновления как формы, так и содержания. Однако, благодаря общественной жизни и идее свободы, содержание опередило форму. Система поэтических образов, не подчиняющаяся системам метра и рифмы, выражала это содержание.

Ключевые слова: миллий хуррият адабиёти (национально-освободительная литература), миллий шеър (национальное стихотворение), литературное наследие, форма и содержание, поэтический образ, символ.

Kirish. Avvalo, poetik obraz istilohiga qisqacha ta'rif berish zarurati tug'iladi. Obrazning eng ibtidoiy izohi shunday: obraz san'at va adabiyotni harakatga keltiruvchi asosiy tushunchalardan biridir, u asarda tasvirlangan narsa yoki shaxs bo'lishi mumkin. Obraz go'zallik qonuniyatlari asosida, qiyos, o'xshatish, bo'rttirish kabi badiiy vositalar yordamida yaratiladigan, ma'lum g'oyaviy butunlikka ega bo'lgan uslub hodisasidir. Hissiy idrokka ta'sir ko'rsatishi bilan ayni vaqtda estetik hodisa sanaladi. Obrazni ijodkorning hayotiy kuzatishlari, tushunchalari va ijodiy yondashuvi, ya'ni reallik va xayolot kuchi shakllantiradi. U inson hayotining aniq va umumlashgan tasviri bo'lib keladi. San'at va adabiyotdagi yagona obraz – Inson. Faqat u bevosita (insoniy qiyofada) yoki bilvosita (ramziy, majoziy yo'lda turli jonivorlar, qushlar, narsa-buyumlar, ranglar, holatlar orqali) tasvirlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, ob'ekt insoniylashadi yoki hissiyot ob'ektivlashadi. Demak, obraz voqelikni individuallashtirish, tipiklashtirish orqali, badiiy to'qima, ma'nodorlik, tasvir va tizim uyg'unligida hosil bo'ladi [6; 17, b.175-197]. XIX asrga kelib dunyo she'riyatida "tuyg'u she'riyati" va "tafakkur she'riyati" to'qnash keldi va bu narsa obrazlar poetikasiga doir an'anaviy qarashlarni o'zgartirib yubordi. XX asr – "tafakkur she'riyati" ustuvorlikka erishgan davr bo'ldi [14]. Bu jarayon o'zbek she'riyatida ham kuzatildi. Endi she'riyat tasviriy-tavsifiy qatorlarni tizishdan voz kechdi, fikr va g'oyaga to'yingan poetik timsollar tilida kuylay boshladi. An'anaviy tasviriylik vazn va shaklda ham an'anaviylikni talab qilar edi. Poetik timsol bo'lsa vaznga, ritmga, qofiyaga bog'lab qo'yilgan hodisa emas, har qanday vaznda va hatto hech bir vaznga sig'maydigan poetik janrlar ichida ham bu timsollarni yaratish mumkin edi. Mukammal vazn va qofiya tizimiga ega bo'lsa-yu, poetik obraz yaratilmagan bo'lsa, bu "she'r" hech bir qiymatga ega emasligi ma'lum. Shu tariqa necha

asrlardan beri foydalanib kelinayotgan poetik obrazlar sof lirik sathga o'tdi va o'zbek she'riyatida bayon adabiyoti o'z nihoyasiga yetdi. Mufasssal bayon, uzundan-uzoq tasvir o'rnini har biri alohida butunlikka ega timsollar tizimi egalladi. Biz o'rganayotgan davr she'riyati "qush tili"da yaratilganini e'tiborga olsak, obrazlar o'z-o'zidan ramziy-ishoraviy mazmunga boyib bordi.

Poetik obraz – sirli, oxirigacha yaratib bo'linmagan element. Bizda mumtoz adabiyot va folklordan meros an'anaviy obrazlar tizimi mavjud, ammo uni har bir avlod qayta yaratadi, obrazlarga bo'lgan munosabatiga ko'ra o'z avlodi yo'li va uslubini belgilaydi. An'anaviy poetik obraz yoki mifopoetik obraz o'zining birlamchi semantik qobig'iga ega bo'lishi mumkin, ammo u asar ichidagina tiriladi. Matndan tashqaridagi *bulbul* – oshiq, ammo u hali tirik obraz emas. *Qor*, *cholg'u* kabi hali obraz darajasida yetilmagan poetik unsurlar bo'lsa, matndan tashqarida qor va cholg'udan boshqa narsa emas. Demak, badiiy obraz – individuallashtirilgan umumlashma, ratsional va emotsional birlik, metaforiklik, assotsiativlik, ko'pma'nolilik (tugallanmaganlik) xususiyatlariga ega butunlik, lirik kechinmaning she'rdagi ifodasi. Obrazlar poetikasi juda keng tushuncha bo'lib, V.Jirmunskiy, A.Veselovskiy, D.Tamarchenko, G.Pospelov, V.Tyupa, V.Xalizev, A.I.Nikolayev, M.Epshteyn tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan, tasniflangan [5; 7; 12; 13; 15; 16; 19; 22]. Bizda obrazlar tasnifiga butunlay boshqacha yondashish zarur bo'ladi. Chunki bizda an'anaviylikka asoslangan, ham poetik, ham tasavvufiy mazmunga ega bo'lgan mukammal, bir-butun tizim mavjud. Agar shu kunga qadar mumtoz adabiyot poetik obrazlar lug'ati yaratilganda edi, yangi davr o'zbek she'riyatida obrazlar qanday yangilangani va bugungi o'zbek she'riyati uchun qanday zamin hozirlanganini kuzatish ancha oson kechar, qonuniyatlarni aniqlash ham tizimli hal qilinar edi.

Jadid she'riyatida ham olamni poetik idrok etish "ilmi bade'" ruhida edi. Bu avlod o'z she'riyatidagi o'z markaziy obrazlarini tizimga solguncha, yangi poetik timsollarni yaratguncha, to'laligicha mumtoz adabiyot asosiga tayandi. Obrazlarga yondashuvdagi avlod munosabati avlod she'riyatini maydonga ketirdi. Bunda mavjud timsollar mohiyati yangilandi, semantik qamrovi kengaydi. Olima M.Tojiboyeva fikricha, XIX asrning so'nggida yashab ijod etgan shoirlarning ijodida poetik timsollar sof dunyoviy, ijtimoiy, milliy, ramziy asosga qurila boshladi [18, b.107]. *Oshiq*, *ma'shuqa*, *may*, *raqib*, *do'st*, *shayton*, *qul*, *ko'ngil*, *jon*, *qafas*, *ko'z yosh* kabi an'anaviy timsollar ham ijtimoiy, ham ruhoniylar evrilishlar evaziga yangicha talqin etildi. *Xayol*, *bulut*, *qor* kabi yangi she'riyat timsollari paydo bo'ldi. Shu tariqa an'anaviy va yangi o'zbek she'riyatigagina xos poetik obrazlar tizimi shakllandi. Ularni ichdan timsollar va siymolar tarzida tasniflash mumkin.

Avval mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlarga vorislik masalasini tekshiraylik. Undan so'ng yangi o'zbek she'riyatigagina xos markaziy poetik obrazlar tizimi tahliliga o'tamiz. M.Tojiboyeva taraqqiyparvarlik she'riyati obrazlar tizimini o'rganar ekan, Avloniy, Tavallo, So'fizoda she'rlari tahlilida yor – ilm-ma'rifat, xalq; *ag'yor* – jaholat, zulm, istibdod ma'nolarida kelishini aytib, quyidagicha xulosa beradi: "Jadid she'riyatida mumtoz adabiyotdagi yuzlab an'anaviy timsollardan faqat ayrimlarigina ishtirok etgan bo'lsa ham, ular mumtoz timsollarning aynan takrori bo'lib qolmay, balki zamon talablari asosida yangilanganligi, an'anaviy timsollar esa mohiyatan mumtoz xususiyatlarni saqlab qolgan bo'lsa-da, ularni ichdan yangilashga, yangicha ma'no qatlamlarini ochishga bo'lgan harakatlarni kuzatdik. Natijada, an'anaviy timsollar jadid she'riyatida ijtimoiy mazmunni ifodalashga safarbar etilganini qayd etish mumkin" [18, b.128]. Aytish mumkinki, jadid she'riyatida mumtoz adabiyotdagi an'anaviy timsollarning ulushi ancha katta. Bu adabiy harakatning boshida, shubhasiz Fitrat turadi. Yangi o'zbek she'riyati timsollar tizimi Fitrat yaratgan poetik olam ostonasidan boshlanadi.

Tadqiqot natijalari. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat talabalik yillaridayoq Mijmar (Cho'g'don) taxallusi bilan bir devon bo'lishga arziqli g'azallar bitgan [26, b.319-320]. O'n yetti yoshidan boshlab, avvaliga diniy, so'ngra ijodiy va ilmiy ish bilan jiddiy shug'ullangan. Bu o'rinda shoir poetik dunyoqarashi shakllanishida diniy bilimlar va mumtoz adabiyot qonuniyatlari asos bo'lganiga urg'u bermiqchimiz. G'oyaviy jihatdan uning ijodida Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Turkiya jadidchiligi ta'sirlari kuzatiladi. "Fitrat ijodidagi dastlabki to'lqin uning 1909-1914 yillarda Istanbuldagi muhojirlik yillari bilan, navbatdagi ko'tarilish 1923-1924 yillar davomida Moskva, Leningradda yashagan davri bilan bog'liq kechadi" [4, b.6-8]. Fitrat olim, nosir, publitsist, dramaturg bo'lsa-da, adabiyotga she'riyat orqali kirib kelgan. Uning she'riy asarlari "Hurriyat",

“Buxoroi sharif”, “Inqilob”, “Oyina” va boshqa vaqtli matbuot sahifalarida, ayrim bayozlarda nashr boʻlgan. Alohida toʻplam holida dastlab xorijda, yaʼni Istanbulda 1911-yili “Sayha. Sheʼrhoi milliy” (“Naʼra. Milliy sheʼrlar”) nomi ostida fors tilida eʼlon qilingan boʻlib, toʻqqiz gʻazal, ikki tarkibband, bir necha qitʼadan iborat (Istanbul dorulfununi kutubxonasida saqlanayotgan ushbu toʻplam muqovasiga “Fitrat. Sayha. Milliy sheʼrlar” deb yozilgan. Matn fors tilida, arab alifbosida). S.Ayniy “Namunai adabiyoti toʻchik” majmuasiga yuqoridagi nashrlardan saralab forsiy sheʼrlardan kiritgan va Fitratni XX asr fors-tojik sheʼriyatining asoschisi sifatida koʻrsatadi [3, b.534-545]. S.Ayniy “elektr quvvati kabi kuchli taʼsir etdi” deya taʼriflagan “Sayha” nainki Turkiston, balki Turkiya, Eron, Germaniyaning markaziy shaharlarida, Rossiya turklari (Qrim va Qozon turklari) orasida ham juda tez tarqalgan. Toʻplam taʼsir kuchi haqida F.Xoʻjayev: “Vatanparvarlik sheʼrlar toʻplami boʻlgan “Sayha”ni oʻqigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham taʼqib qila boshladi. Chunki bu sheʼrlarda Buxoro mustaqilligi gʻoyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi” deya maʼumot beradi [23, b.98-99]. B.Karimov bergan maʼlumotga koʻra, V.Mahmud va koʻplab jadidlar hamda ularning izdoshlari Fitrat asarlari bilan Shakuriy domla orqali tanishgan (Shakuriy domla Istanbulda safarda boʻlgan va 50 dona Fitrat asarlari – “Munozara”, “Hind sayyohi”, “Sayha”ni yashirinchalik olib kelib, Buxoro, Samarqand ziyolilari oʻrtasida tarqatgan) [10, b.72]. Bugunga qadar “Sayha”dagi ayrim namunalar oʻzbek tiliga tarjimasi bilan eʼlon qilingan [21, b.58-69]. Sheʼriyatni ichdan yangilashga ishtiyoq, umuman, yangi davr oʻzbek sheʼriyati aynan “Sayha”dan boshlandi, deya aytishimiz mumkin. Toʻplamdan joy olgan asarlar mumtoz adabiy janrlar – gʻazal, tarkibband va qitʼa shaklida yozilgan boʻlib, aruz qoidalariga toʻla amal qilingan. Ammo gʻoyaviy va poetik obrazlar istifodasiga koʻra ularda yangilanayotgan adabiy tafakkur belgilarini kuzatamiz. Bu toʻplamda ishqiy mazmun ijtimoiy mazmun bilan toʻyinganini koʻramiz, Fitrat “Sayha”da eng koʻp *zulum*, *gʻaflat* soʻzlarini qoʻllaydi va bu hurriyat gʻoyalari bilan bogʻliq.

Fitratni Turkiston matbuotida shoir sifatida tanitgan sheʼrlar – “Yurt qaygʻusi” turkumligi hisoblanadi. Turkumlik 1917-1920 yillarda yaratilgan boʻlib, milliy hurriyat gʻoyalarini ifodalashi jihatidan “Sayha”dan oʻsib chiqqan. Endilikda ijtimoiy dard, millat masalasi aruz tizimi, qofiya qoliplarida emas, Fitratning oʻz tili bilan aytganda, “yurakimizdagi sezgilarni toʻgʻri bermakchi boʻlgan sochim sheʼr” shaklida yaratilgan. “Yurt qaygʻusi” sochmalarining yaratilish sabablari va daʼvatlarida – 1917-yil qirgʻinlari, hurriyat kurashlari, Turkiston Muxtoriyatining eʼlon qilinishi, guruhlariga boʻlinib ketgan Turkiston ziyolilari fojiasi, mardikorlar fojiasi, 1-jahon urushi talofatlari aks etadi. Turkum toʻrtta sochma va bir sheʼrdan iborat boʻlib, toʻrttasi “Hurriyat” gazetasining 1917-yil sonlarida, beshinchi sheʼr 1920-yil 5-oktabrda “Buxoro axbori” gazetasida eʼlon qilingan. “Hurriyat” gazetasi 1917-yil 28-iyul 26-soni 2-betida bosilgan turkumlikdagi birinchi sheʼrga “Yurt qaygʻusi” sarlavhasi berilgan. Bu sarlavha keyingi sheʼrlarda nainki umumiy nomga, balki alohida gazeta rukniga aylangan. Shuningdek, bu sheʼrlarda umumiy sarlavhadan tashqari, qavs ichida alohida izoh ham keltirila boshlangan. Muhim jihati shundaki, “Sayha” ruhi “Yurt qaygʻusi” turkumida aniq namoyon boʻladi. Bu umumiylik mazmun va poetik obrazlar qoʻllanilishida koʻrinadi. Fitratning oʻzbek tilidagi sheʼrlari toʻplam holida 1922-yil “Oʻzbek yosh shoirlari” nomi ostida Choʻlpon, Elbek, Botu sheʼrlari bilan birgalikda chop qilingan. Fitrat toʻplab, tartiblagan. Unda Fitratning 14 ta sheʼri bor, ularning aksariyati 1920-1921 yillarda yaratilgan. Bu sheʼrlar gʻoyaviylik, Fitratgagina xos boʻlgan tashbehlarining ishlatilishi jihatidan “Sayha”ga kirgan sheʼrlarni, “Yurt qaygʻusi” turkumidagi sochmalarni davom ettirsa-da, shakl va ifoda uslubi jihatidan mutlaqo yangi hodisa boʻlib, ayni jihati bilan toʻplam yangi oʻzbek sheʼriyatining qaldirgʻochi sanaladi. Fitrat “Tanlangan asarlar” 1-jildi yangi nashriga uning qalamiga mansub deya “Paxta terimida” nomli sheʼr ham kiritilgan [21, b.52-54]. Sheʼrni majburiyat ortida yozilgan deya qabul qilish mumkin. Ammo sheʼrda Fitrat lirikasiga xos birorta epitet, qaytariq, murojaatlar uchramaydi, shu jihatdan tili va uslubi ham unga xos emas. Ehtimol, keyingi tadqiqotlarda bu masala oydinlashar. Manbalarda Fitratning nashrga tayyorlanganu chop qilinmagan “Uchqun” sheʼrlar toʻplami haqida ham soʻz boradi. Xususan, “Hind ixtilolchilari”ning Berlin nashri muqovasida nashr jarayoni; “Abulfayzxon”ning Moskva nashrida “Uchqun” chop etilib, sotuvga chiqqani va narxi haqida xabar berilgan [28, b.90; 1, b.92]. Afsuski, shu kungacha bu toʻplam topilgani yoʻq. Choʻlpon ham ilk kitobining ilk faslini Fitratga joʻrovozlikda “Yurt qaygʻusi” deya nomlagan. Choʻlpon 1913-1914 yillari “Oyina” jurnalida

ilk qatnashgan paytlaridan Fitrat dunyosi bilan yaqinlashdi, Fitrat boshlab bergan yoʻldan yurdi, Fitrat gʻoyasini yaratgan, ammo timsolga aylantirolmagan poetik obrazlar olamini yaratdi. Elbek, Botu va yana koʻplab shoirlar ular ochgan yoʻldan bordilar.

Ijtimoiy mazmun bilan boyigan, aniqrogʻi, yangidan jonlangan **anʼanaviy poetik obrazlar** va jadid sheʼriyati yaratgan **yangi timsollar** bu davr adabiyotining magʻzini tashkil etadi.

Maʼlumki, anʼanaviy obrazlarning deyarli barchasi ishqiy mazmunga ega. Shunday boʻlsa-da, ularni bir necha guruhlariga tasniflash mumkin: 1) oshiq-maʼshuq tizimidagi timsollar; 2) tabiat unsurlari bilan bogʻliq timsollar; 3) vaqt oʻlchovi bilan aloqador timsollar; 4) yoʻl motivi bilan bogʻliq timsollar; 5) ruhiy holat bilan bogʻliq timsollar; 6) diniy-tasavvufiy timsollar; 7) tarixiy shaxslar timsoli, yaʼni siymolar.

Bu oʻrinda **oshiq-maʼshuq tizimidagi timsollarga**gina toʻxtalamiz. Ayonki, anʼanaviy oshiq, maʼshuq obrazlari turli shakllarda namoyon boʻladi. Oshiqning eng faol shakli – bulbul. Bulbul – yangi oʻzbek sheʼriyatida *qush*, *qafas*, *kuygan qanot* bilan birgalikda poetik obrazlar qatorini tashkil qiladi. **Bulbul** – oshiq, shuningdek, qismat; **qush** – jon; koʻngil; **qafas** – tutqunlik; **kuygan qanot** – umidsizlik ifodasidir.

Fitrat “Hind ixtilolchilari”da keltirilgan sheʼriy parchalarda *bulbul-gul* munosabatiga anʼanaviy ishqiy mazmun yuklasa, bu mazmunni ifodalashda Cpoʻlpon “Suygan choqlarda” sheʼrida *gul-bulbul-qafas*, “Qalandar ishq”, “Yupanmoq istagi”da *bulbul-gul*, “Shu kunda” sheʼrida *gul-bulbul-singan qanot*, “Bahor keldi”, “Olqish”da *gul-bulbul-bahor*, “Bitdi” sheʼrida *gul-bulbul-oʻq*, “Sendan yiroqda” sheʼrida *qush-qanot* tizimiga murojaat qiladi. *Gul-bulbul-oʻq* tizimini Elbekning “Kesilgʻon umid” sheʼrida ham koʻramiz. Shuningdek, Elbekning “Sevgilimga”, Botuning “Qayongʻa?” sheʼrlarida muhabbat mazmunini ifodalashda *gul-bulbul* anʼanaviy timsollaridan foydalanilgan.

Fitrat “Sayha”dan joy olgan gʻazallarida bulbulga ijtimoiy mazmun yuklaydi, uni erk, maʼrifat oshigʻi sifatida tasvirlaydi.

Mutrib, girev soz, ki har bor merasad,

Noxun ba joni jahl zi tori rubobi mo.

(Mazmuni: *Ey mutrib, nola qilgʻilkim har lahza // Jahl jonini tirnaydir rubobimizning tirnoqi*).

Fitrat “Yodi Vatan girifta sarosar dimogʻi man” (“Vatan yodi boshdan-oyoq jonga oʻrnashgan”) matlaʼli gʻazalida anʼanaviy tarzda oʻzini bulbulga mengzaydi. U bogʻini zogʻlar makon qilgani uchun qanotlari kuygan holatda. **Bogʻ**, yaʼni bulbulning oshyoni – Milliy Vatan ekan, **zogʻ** – bosqinchilar ekanligi anglashiladi:

Otash girifta bolu pari andalebi dil,

To oshyoni zogʻi fasod ast bogʻi man.

“Shud begunah buride sari doʻstoni dil” (“Jon doʻstlarning boshi gunohsiz kesildi”) matlaʼli gʻazalda ham shoir zogʻ-zagʻan timsolidan shu mazmunni ifodalashda foydalangan. Yuqorida keltirilgan parchada **kuygan qanot** timsoli ham boʻlib, u soʻngan umid maʼnosidadir. *Singan qanot* Elbek tomonidan ham “Muhit ichida” sheʼrida millat ziyolisining foje qiyofasini ifodalashda qoʻllanilgan: *Uchub-uchub shu muhitning ichida // Yuksak yerga qoʻnmoq yoʻlin koʻzladim // Muhit ichra esgan kuchli yellargʻa // Qarshi turar qanotim deb oʻyladim... // Biroq uchqoch, sinmish koʻrub qanotim // Qaygʻilanib, oʻz holimgʻa yigʻladim*.

Botuning “Tilak” sheʼrida ham shunday joʻrovozlikni kuzatamiz: *Sira tolmas qanotlarim boʻlsaydi // Kuchsizligim sira qolmay bitsaydi // Chin nur tushmas tubanlikdan qochardim // Yuksaklarga, arshlarga chiqardim*.

Botu bu oʻrinda nainki umid, orzuni, balki imkonni ham qanot tarzida timsollashtiradi. U anʼanaviy *qush-qanot* timsoli yoniga oʻz davrining butun fojiasini ifoda etgan – “kuchsizligim” soʻzini ham qoʻyadi. Yosh joni bilan kuchsizlik, charchoq ichidan chiqib ketolmayotgan; kuchsizligi tuzalmas yaraga aylanganu unga davo topolmayotgan shoir sheʼrda kuchsizlikning oʻzini timsolga aylantiradi. Kuchsizlikni, charchoqni timsolga aylantirgan bu sheʼriyat qanchalar fojiali, qanchalar alamli.

Botu yaralangan qush timsoliga qayta-qayta murojaat qiladi. U Fitratning “Ur, ur!.. Sening tirnoqlaring nozli, nozli urduqcha // Yuragimning bitib qolgʻan yaralari ochilsun!” deya boshlanuvchi

to'rtligi ta'sirida yozgan parchasida (har ikki she'r 1920-yil aprelda qog'ozga tushirilgan. Yana aytib o'tish kerakki, Elbekning o'sha yili yozilgan "Yana aldading" she'rida ham yor qo'lidagi cholg'u qalamga olinadi va Fitratning ta'siri ayon sezilib turadi) ham shoir ko'nglini – tubanda yotgan yaralangan qush tarzida chizib beradi: *Chal!.. Qillardan mungli-mungli titrak unlar chiqquncha // Kuchsizlangan dardli ruhim yuksalgali talpinsin // Qop-qorong'u tubanlikda yaralangan qush kabi // Ingrab-anglab yotgan ko'nglim bir ozgina tinchlansin.*

Aytish mumkinki, singan qanot eng ko'p Cho'lpon she'riyatida ko'zga tashlanadi, chunki Cho'lponning lirik qahramoni ruhiy sinishlarni juda chuqur his qiladi va ifoda etadi. Buni "Men qochmadim" she'ri misolida ko'raylik. Cho'lpon Buxoroga bosh olib ketganida, uni kurashdan qochdi, deya malomat qiladilar. Shunda shoir bunga javoban "Men qochmadim" she'rini yozgan. Cho'lpon she'rida o'zini bir qanoti singanu, bir qanoti butun qolgan qush timsolida gavdalantiradi: *Men yangilar o'lkasidan sinmagan // Bir qanotni taqib olib qo'zg'oldim // Shu yo'limda yaproqlari so'lmagan // "Yosh yog'och"ning soyasida to'xtalдим.*

"Yangilar o'lkasida" yakka qanot bilan qolgan shoir qayergacha ham uchib borar edi. Adabiyotshunos N.Karimov Cho'lpon "yosh og'och" deganda F.Xo'jayevni nazarda tutadi, u "F.Xo'jayev bilan hamkorlikda ishlash jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin, degan o'y bilan Buxoroga borgan", deya izohlaydi [9, b.153-154]. Biz bu o'rinda "ko'plikning qayg'usida cho'zilib... qilich botib, xanjar dilga urinib", abgor holga kelgan, bir qanoti, ya'ni umidining bir qismidan ayrilgan, ruhan majruh qilingan holida ham qolgan orzu-a'molini yo'qotmagan millat ziyolisini ko'ramiz: *Men qochmadim! Men tilakni izlayman // Qanot kuchlik, borgan sari tezlayman!*

Yoki garchi o'zbek qizi tilidan aytilgan bo'lsa-da, mutlaqo Cho'lponning o'z ovozi bo'lgan "Men va boshqalar" she'rida ham qanoti bog'langan qush timsoliga duch kelamiz: *Menda-da qanot bor, lekin bog'langan... // Bog' yo'qdir, shox yo'qdir, qalin devor bor // So'zlari sadafdek, tovushi naydek // Kuyim bor... uni-da devorlar tinglar...*

Lirik qahramonni ifoda etar ekan, yangi o'zbek she'riyatidagi *bulbul* va *qush* timsollari o'rtasidagi nozik farqni nazardan qochirmaslik zarur. Avloniy ham "Hijroni bulbul", "Fig'oni bulbul" g'azallarida millatni uyg'otish uchun nola chekayotgan bulbul timsolini yaratgan edi va bu shoirning o'zini, gul – millatni, qafas – zamonni ifoda etardi. Fitratning Cho'lponga bag'ishlangan, deya taxmin qilinadigan "Shoir" she'rida ham muallif shoirga "Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan Bulbulidir" deya ta'rif beradi va uning endigi vazifasini quyidagicha belgilaydi: *Shoir // Tabiatdan sirli, teran ma'nolar // Tiriklik-chun ochiq, to'g'ri, chin yo'llar // Izlar – topar, o'zi uchun saqlamas... // Mana shuning o'ksuz, yo'qsul ko'nglini // Ko'tarmak-chun, go'zallarga teyishdir // Kim ozg'ina qarag'aylar, kulgaylar // Ingrab turgan jonini // Qo'llag'aylar, bir oz ko'mak etkaylar.*

Muallif bulbul timsolidagi shoirga sinq ko'ngillarda yupanch hissini uyg'otish, to'g'ri yo'l topish va unga boshlash, umid berish kabi ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Ayni vaqtda hurriyat va kurash yo'lida jangchiga aylanib borayotgan she'riyatga Fitrat she'rining xos tabiatini, uning asosi – go'zallik ekanligini eslatib qo'yimoqchidek va o'shanday ilhomga to'la erkli bir ijod dunyosini qo'msayotgandek taassurot beradi. She'rining o'z davrining chinakam lirik shoiri – Cho'lponga bag'ishlanishi shu jihatdan o'zini oqlar, ehtimol. Biroq Cho'lponda *qush* bulbul timsolining ijtimoiy mazmun bilan to'la to'yingan variantidir. Bu millat shoiri o'zini Fitrat, Avloniy kabi bulbul, deya atamaydi, mumtoz pafosdan keskin uzoqlashadi, o'z davrining yangi timsoli bo'lgan qushni gavdalantiradi.

Fitrat "Chin sevish" dramasida *jon bulbuli*, *uchmox bulbuli* epitettaridan foydalanar ekan, ularni ma'shuqaga nisbatan qo'llagan. Cho'lpon bo'lsa o'sha davr o'zbek qiz-ayollari holatini ifodalash uchun "Qiz qo'shig'i", "Chimmat qo'shig'i" she'rlarida *qafasdagi qush* timsolidan foydalangan. Jon bulbuli, jannat bulbuli bo'lgan ma'shuqaning qafasdagi qushga evrilishi adabiy-badiiy tafakkurdagi jo'n hodisa emas. Bu uyg'onayotgan, o'zgarayotgan, reallikka yaqinlashayotgan ruhoni dunyoning hosilasidir. Cho'lponda qafasdagi qush timsolining ma'no doirasi ancha keng. Olim T.Xo'jao'g'li qafasdagi qush, kapalak – 1920-1930 yillar terror dahshati ta'sirida paydo bo'lgan katta bir umidsizlikdan tug'ilgan, hurriyat va o'zlik orzusini ifoda etuvchi ramzidir, deya izohlaydi [11, b.3-53]. "Qiz qo'shig'i" Farg'ona, Andijondagi fuqarolar urushi fojialarini aks ettiradi. Shoir "Darxon" gazetasi xodimi sifatida qirg'inlaru taloshlarga o'zi guvoh bo'lgan, taassurotlarining bir

qismini shu she'rida ham ifoda etgan. Shu o'rinda Cho'lponning 1924-yilda yozilgan "Qushning hadigi" she'rini qisqartirib keltiramiz: *Qush bechora qo'rqadurkim, uyasidan ayirgaylar // Uyasidan ayirmoq-la qanotini qayirgaylar // Mayda simdan silliq qilib mohirona to'qilgan bir // Qafas topib, darchasini ochib derlar: "Maskanga kir!"... // Va ko'rarkim, maskan o'zi mashinada quyilmishdir // Uni hozir qilmoq uchun ko'p zehniyat sarf bo'lmishdir // Darchalari mahkamgina, puxtagina, xotirjamlik // Suv ichgali, don yegali teshiklar bor kichik-kichik... // Simlar bilan ishi yo'qdir, chiqmoq uchun uchib ko'rar // O'rmonlarning xayolida har tomonga o'zni urar... // Devorlarning sezgisi yo'q, tuyg'usi yo'q, tovush bermas // Tegra butun ruhsiz gavda: "Nechun mundoq bo'ldik?" demas... // Uning butun tasallisi: to'lib-toshib sayramoqdir // Ko'm-ko'k tala-o'rmonlarni eslab-eslab yig'lamoqdir, yig'lamoqdir!.*

Qush va qafas tasvirida:

qush – qo'rqan, uyasidan ayrilgan, qanotlari qayrilgan, bechorahol, o'rmonlarning xayolida qafas devorlariga yalinayotgan, dala-o'rmonlarni eslab yig'layotgan, yig'lab tasalli topayotgan tutqun – o'z yurtidan, erkidan ayrilgan, istibdod devorlarini yiqolmayotgan, yig'idan tasalli topayotgan millat; erishilmagan hurriyat; boy berilgan o'zlik; ruhiy iztirob ifodasi;

qafas – mayda simdan "silliq" qilib, bosqinchi siyosatdonlar tomonidan mohirona to'qilgan, tuzum mashinasida quyilgan, go'yo xotirjamlik beruvchi, ochdan o'lmaslik uchun suv, don solingan kichik-kichik teshiklari, ruhsiz, ovozsiz devorlari bor "maskan" – istibdod tuzumi, o'rnatilgan siyosiy tuzum. Mumtoz adabiyotda tutqun qush lirik qahramonning o'zigagina tegishli bo'lgan fojiani gavdalandirsa, yangi o'zbek she'riyatida millat fojiasini, jamoaviy baxtsizlikni aks ettiradi.

Elbekning ancha oldin – 1918-yilda yozilgan "Tutqun qushcha" she'ri "Qush hadigi" bilan g'oyaviy, ifodaviy jihatdan juda yaqin. Faqat 1918-yilda hali ziyolilar hurriyatga umid qilayotgan, sobit turib kurashayotgan, umidsizlikka berilmagan edi, shuning uchun ham Elbek o'z she'rida: *Sening bu foydangdan ko'zlarin yumib Qachon bu insofsizlar qo'yib yuborar?! // Qutulmoq istasang sen hech yig'lama // Ularga yolinma, sira indama! // Kuch to'pla, kuch bilan qafasin buzg'il // Qulliqning oltinli bo'g'ovini uzg'il!..* deya yozadi. Ko'rinadiki, davr va ijodkorning ruhiy holati obraz tabiatiga ta'sir ko'rsatadi.

Yangi davr o'zbek she'riyatida qora qush, qarg'a, olaqarg'a, boyqush kabi timsollar ham borki, ular an'anaviy zog' timsolining qayta ishlangan ko'rinishlaridir. Fitrat "Behbudiyning sag'anasini izladim" she'rida boyqushni an'anaviy tarzda motam timsolida qo'llasa, Cho'lpon "Yong'in" she'rida boyqushni – o'lim va qo'rquv dahshati tarzida ifodalaydi. Cho'lpon bu timsolga Fitrat, Elbek, Botudan ham ko'proq murojaat qilgan. U "Kuz" she'rida: *Balo yanglig' qator-qator chizilib // Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'talar // Sharqdek ichdan yashringina ezilib // Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutalar, deya yozsa, "Yana qor", "Oppoq oy", "Xazon" she'rlarida qarg'ani – tuzum malaylari; "Ket" she'rida qora qushni – xiyonat ramzi sifatida timsollashtirgan: Ket, ilohiy vijdonimni bulg'ama // Butlar bilan tegaramni chulg'ama // Ket, ey to'qqiz pari ko'zli qora qush // Yiqiq bo'lgan ko'kragimdan chetda uch.*

Rafiq Mo'min "Qayg'i" she'rida bo'lsa Farg'ona, Marg'ilon qirg'inini tasvirlar ekan, butun nafratini oq pashshalar, boyqushlar timsoliga jamlaydi: *Eshitdim uzoqlardan ohingni // Oq pashshalar so'rmish sening qoningni // Bog'ingdagi chamanlaring quruganda // Boyqushlarni quvalab-quvalab yig'ladim...* ("Farg'ona" gazetasi 1921-yil 20-oktabr sonida bosilgan. Sirojiddin Ahmadning "Milliy hurriyat adabiyoti" (2018) kitobida ilk marta qayta nashr etilgan). Shoir Oqposhsho va uning qo'shinini – qon so'ruvchi oq pashshalar, ularning malaylarini – boyqushlar, deya ataydi.

Elbek "Qarg'a" she'rida qarg'a va bulbulni qarama-qarshi timsoliy ma'nolarda qo'llasa, Mirmullaga bag'ishlangan "Eslash" xotira she'rida yurti vayronaga aylantirgan bosqinchilarni boyqushlar qiyofasida tasvirlaydi: *Boyqushlar inglagan vayronalarni // Ko'z yoshi to'kilg'on g'amxonalarni // Ko'rganda ko'z yoshing tinmay oqardi // Ko'zlaring qayg'ili, mungli boqardi.*

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, yangi o'zbek she'riyatida "mung", "qayg'i" bora-bora barqaror sifatlashga aylanib bordi. "Hind ixtilolchilari"ga kiritilgan she'riy parchadan o'qiymiz:

Mungli bulbul, mungdosh bo'ldik, kel, sayra,

Bir qip-qizil gulga men ham tutildim [20, b.43].

Mung, mungli qush, mungli kecha, mungli uy timsoli “Mening kecham” she’ri orqali shoirlariga zamondosh va keyingi avlod shoirlariga ko‘chib o‘tdi. Elbek “Bulbulg‘a”, Botu “Qayong‘a?” she’rida oshiq timsolidagi bulbulga *mungli qushim, mungdoshim, mungdosh bulbul*, deya murojaat qilsa, Elbek “Mungli qushim” she’rida o‘ksingan turkiy tilni mungli qushim, deya ataydi:

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat –

Kimlar erur turk tilini sotg‘uchi?..

Fitrat “Achchig‘lanma degan eding”, “Ovunchoq”, “Qor” she’rlarida *mung* so‘ziga parallel o‘ksuz so‘zini ham qo‘llaydi va qator uyadosh epitelar tizimini yaratadi: *o‘ksuz ko‘z, o‘ksuz qizlar, o‘ksuz bir og‘och, o‘ksuz bebak, o‘ksuz tilak, o‘ksuzlik boyqushi* kabi. Elbek Cho‘lpon nafasi ufurib turgan “Ko‘ngil chechagi” she’rida ko‘nglidagi nim intilish, orzuni o‘ksizgina qushcha, deya erkalaydi. Bu epitelar erksiz, g‘ururi toptalgan millat vakillarini ifoda etadi. Fitrat, Cho‘lpon, Elbek poetik dunyosida Milliy Vatan, Haqiqat, Hurriyat, Milliy til o‘ksingan bir qiyofaga ega.

Yaralangan qush timsoli tabiati 1925-yillarga borib o‘zgarishga uchradi. Botu “Yaralangan qush” she’rida hamon o‘zini yarali qush sanasa-da, mungdoshlaridek: “*Bezdim tilakdan, yashashga nafrat // Umid so‘ziga tuganmas la‘nat // Uchdi yo‘qlikka mendagi himmat // Endi uchmoqqa menda yo‘q qudrat!*” deyishdan kechdi, qush holida har yumush, har ish uchun yerga tushdi. Bora-bora davr she’riyatidan yaralangan yoki qafasdagi qush obrazini unutish talab qilindi, “o‘zini unutgan” qushlar ko‘kda emas, endi yerda yurishi kerak edi.

1937-yilga borib qafasga solingan bu jonlar jisman mahv etildi. Ustoz N.Karimov bizga Usmon Nosirning 1937-yil sentabr oyida avaxta devoriga ko‘mir bilan yozgan “Tutqun bulbulcha” nomli bir she’rini taqdim etdi. She’r quyidagicha boshlanadi:

Hozir sening qanoting bog‘liq

yuraging dog‘liq,

Eshitilmas sayrashing xalqqa.

Sen kevgan bog‘lar ham bo‘m-bo‘sh,

yo‘q unda xonish,

Eshiklari qulflidir – halqa...

Ushbu she’r barcha mahbuslarga yod bo‘lib ketgan, har misrasi ularga yupanch bo‘lgan. U.Nosir o‘zini “Vatan bulbuli”, deb atar ekan, ozod va ijod kunlariga umid bilan qaragan. Afsuski, qafas hayotiga ko‘nikolmagan bu bulbullar yo‘q qilindi va ularning izdoshlari xonaki qushlarga aylantirildi.

Ko‘ngil – an’anaviy oshiq obrazi shakllaridan yana biri. Fitratda – andalibi dil, mungli ko‘ngil oshiq timsolini gavdalantirsa, Cho‘lponda bu timsolga ikki xilda murojaat qilinadi. “Qizlarning daftariga” she’rida ko‘ngil gullarga – go‘zallarga muhabbat bog‘lasa, “Nimaning hidi” she’rida azal malagiga muftalo oshiq sifatida ko‘rinish beradi va bu o‘rinda ishq ilohiyga yaqinlashib boradi. “Ko‘ngil” she’rida “Ko‘ngil, sen munchalar nega // Kishanlar birla do‘stlashding?”, deya endi oshiq emas, istibdod kishisini, tutqun millat vakilini, erksiz shoirni ifoda etadi. Bu she’r qog‘ozga tushirilgan 1922-yilda Elbek ham “Uyg‘on, ko‘nglim” she’rini yaratdi va ayni obrazga yondashuvda Cho‘lponga jo‘rovoz bo‘ldi.

Cho‘ponning Botuga bag‘ishlangan 1925-yilda yozilgan “Tan berdim” she’rida bo‘lsa ko‘ngil bilan bog‘liq butunlay boshqacha manzarani ko‘ramiz: *O‘tganlarga yomon “gina” saqlaysan... // Bizlar faqat o‘tganlarga bog‘lanib // O‘tganlardek asta-asta yo‘q bo‘ldik // “Ko‘ngil” dedik, ko‘ngillarda “kul” bo‘ldik... // O‘tganlarning kafaniga chulg‘onib // U olovli ko‘zlaringga qarasam // Hamma yondan uchib chiqqan uchqunlarni sanasam // Isyon o‘qi o‘lik tanga kirmasin // Otguvchisi tosh – // Vatandosh bo‘lmasin!..*

Cho‘lpon bu alamli she’rida avlodlarni bir-biriga qayrayotgan tuzumga nafarat saqlar ekan, ustoz sifatida Botuni uning girdoblaridan ogoh qiladi. Shu bilan birga “Ko‘ngil” dedik, ko‘ngillarda “kul” bo‘ldik...” deya eski ishq adabiyoti ham, jadidlar yaratgan chin she’riyat ham, rubobiy she’rlar ham zavolga yuz tutgani, uning o‘rnini havoyi, mardikor she’riyat egallayotganini o‘kinch bilan ifodalaydi.

Ko‘ngilga yaqin turuvchi yana bir an’anaviy timsol **sham // chirog‘** bo‘lib, yangi o‘zbek she’rida u qadar faol emas. Cho‘lpon “Miltiragan xira chirog‘, sen yo‘qsul // Yel qattig‘roq kelib ura

o'charsan", deya oshiq ko'ngliga ishora qilsa, "Yupanmoq istagi", "Amalning o'limi" she'rlarida istiqloлга umid, hurriyat, erk mazmunida qo'llagan: *Kenglik xayollari uchdimi ko'kka? // Butun umidlarni yovlarmi ko'mdi? // Mangu tutqunlikka kirdimi o'lka? // Xayolda porlagan shamlarmi so'ndi?*

"Amalning o'limi"dan olingan ushbu parchada sham aynan ijtimoiy mazmunni ifoda etadi. Cho'lpon mana shu to'rtlikda erk va tutqunlik, insoniylik va g'ayriinsoniylikni yuksak qiyoslarda chizib beradi. Bu qiyoslar biri birini rad etuvchi, biri birini qabul qilmaydigan qiyoslardir va ayni jihati bilan davrning noinsoniy manzarasini to'la gavdalantiradi: kenglik xayollari – mangu tutqunlik; butun umidlar – so'ngan shamlarga alamli evriladi.

Qul – ishq yo'lida ixtiyorsiz qolgan oshiq obrazi ifodalaridan biri. Bu an'anaviy obraz yangi o'zbek she'riyatida, xususan, Cho'lponda yangilangan ijtimoiy mazmun bilan ko'rinish beradi. "Amalning o'limi" she'rda mustamlaka xalq: *...Qarshimda yig'lagan bu jonlar kimlar? // Qullar o'lkasining insonlarimi?* deya ta'riflansa, "Yupanmoq istagi", "Qo'zg'olish", "Tarixdan" she'rlarida to'g'ridan-to'g'ri qul, deya iztirobli ifodalanadi:

Nima uchun shuncha jonlar hur o'lkada "ozod" qul?

Nima uchun yo'lchilarg'a ko'rsatilmas to'g'ri yo'l?

Bu obrazga jasoratli murojaatni Cho'lpondagina ko'rmaymiz.

Oshiq-ma'shuq tizimidagi ikkinchi asosiy komponent – ma'shuqa – ko'plab timsoliy shakllarga ega: tangri, malak, pari, go'zal, gul va uning qator analoglari (binafsha, chechak, yaproq kabi). Tangri, malak, pari mumtoz adabiyotda eng faol ifodalar sanaladi. Ular yangi she'riyatda yordan tashqari ma'rifat, erk, haqiqat, millat ma'nosiga ega.

Yaxlit olib qaraganda, ilk milliy uyg'onish davrida, xususan, Avloniy, S.Ajziy she'riyatida ma'shuqa ma'rifat timsolidir. Taraqqiyparvarlik she'riyatida maqsad – ma'rifat edi, ammo keyingi davrda ma'rifat maqsad emas, vositaga aylandi. Maqsad – erk bo'ldi. Zotan yangi o'zbek she'riyati, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy she'riyat edi. Fitrat "Sayha"da maqsud guli, deganda ishqni, ma'rifatni emas, to'g'ridan-to'g'ri hurriyatni nazarda tutdi.

Chechak, malak kabi timsollar epitet darajasida, avvalo, Fitrat she'riyatidan boshlanadi. Fitratga xos muhim bir jihat shundaki, u erkalash so'zlarani ketma-ket sanash orqali uslub yaratadi: *qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim; gulmi sen ko'zim, jonmi sen qo'zim* kabi:

Qip-qizil gulum, yop-yorug' oyim,

Ketma, tur bir oz, men ko'ray seni.

Dardi jonimning sen davosimi?

Mungli ko'nglumning podishosimi?

Parcha "Kim deya seni?" she'ridan olingan bo'lib, muhabbat mavzusidagi "Ishqimning tarixi" she'rda ham Fitrat lirikasiga xos bo'lgan *ko'klarning xoni, jon chechagim, tong chirog'i, yulduzli yo'llar, qonli olovlar, yerdagilar dunyosi* kabi birikmalar qo'llanganki, ular nozik lirizm va o'ziga xos manzarani hosil qilgan (Fitrat *so'kish, qarg'ish, la'nat aralash bo'g'i*q yoki *bu kichkina, o'ksuz, oppoq bebaklar yoxud tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un* misralarida ham shu usuldan foydalanadi, faqat salbiy ma'nodagi epitetlarni tizadi. Bu ta'sirchan usulni Cho'lponning *xira, uchgan, kuchsiz dalalar* yoki *ochiq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek* misralarida ko'ramiz). Shu o'rinda Fitrat tiliga xos va tizimli qo'llanilishi bilan Fitrat uslubiga xos erkalashlarni umumlashtirib sanab o'tamiz: *oppog'im, malagim, go'zalim, sevgilim, jonim, armonim, chechagim, jon chechagim, umid chechagi, tangri qushi, tangri chirog'i, ko'ngil bog'i, jon bulbuli, armon yulduzi, hulkarim, umid hulkari, sevgi uchmog'i, uchmox bulbuli, ko'z babagim* ("Chin sevis" fojiasidan), *nozli malak, malaklar bog'ining chechagi, chechaklar dunyosining qushi* ("Hind ixtilolchilari"dan). "Bir oz kul", "Achchig'lanma, degan eding" kabi ishqiy she'rlarda ham shoir "Ikki ko'zim, malak yuzim, sevdigim", "Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim" tarzida epitetlarni tizish orqali uslubni shakllantiradi. Ishqiy lirikaga xos bu o'xshatishlar poetik obrazlar shakllanishiga asos bo'lgan. Biz ishqiy mavzuda deya tahlil qilayotgan – "Kim deya seni?", "Bir oz kul" she'rlarini olim B.Hayit yurt kelajagi, millat ahvoli bilan bog'lab talqin etadi [27, b.20-22]. Bu o'rinda muhabbat Vatanga qaratilganini nazarda tutib, olim talqinini ham qabul qilish mumkin. Muhimi, Fitrat qo'llagan epitetlar Cho'lpon, Elbek, Botu va boshqa

ko‘plab shoirlar tomonidan qayta ishlandi, *malak, chechak* Cho‘lponda chinakam timsol darajasida yetildi.

Yangi o‘zbek she‘riyatida ham ishqiy mazmunni ifodalovchi ko‘ngil-gul, gul-bulbul, gul-bulbul-ko‘klam tizimlari qo‘llandi. Cho‘lponning “Qizlarning daftariga”, “Sozim”, “Tong”, “Olqish”, “Kleupatra uyqusi”, Botuning “Kuz kunida” she‘rlari bunga misol bo‘ladi. Ammo Cho‘lponning badiiy yuksak she‘rlarida *gul, gul-tikon* birliklari ijtimoiy mazmunga ega, ya‘ni hurriyatni ifoda etadi. Unda:

gul – millatning eng sara farzandlari:

Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?

Sahar vaqtida gullaring so‘ldi (“Go‘zal Turkiston”).

Gul eding, ochilmay so‘lding-da ketding,

Yo‘qlik dengiziga to‘lding-da ketding (“Ketding”)

gul-chechak – yaxshilik, tabiat, hayot, umid, shodlik, hurriyat, haqiqat:

Gul o‘rniga zahar tilar muhitda,

Uning qilgan bu ishlari bo‘sh endi (“Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi”).

Binafsha, sening-chun ko‘kragim erk yeri,

Bu yerdan ko‘klarga uchgil (“Binafsha”).

“Binafsha” she‘ri va undagi ramziylik belgilari olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Olim N.Yo‘ldoshev bu borada quyidagicha xulosa beradi: “Ijodkor ramziylik talabiga ko‘ra ijtimoiy muhit voqeligidan ta’sirlanib, shaxsiy simbolika ham yaratishi mumkin” [8, b.44]. Cho‘lpon an’anaviy ma’no qavatiga ega gulni emas, aynan *binafshani* ramzga aylantirar ekan, u shaxsiy simbolikasini, o‘zigagina xos bo‘lgan poetik timsollar lug‘atini yaratib boradi. “Ko‘kragim erk yeri”, der ekan, nomus, erk va haqiqatga o‘z ko‘kragi, ko‘ksidan joy ajratadi. O‘ziga vatan topmagan, azaliy vatanidan ajralgan bu muqaddas qadriyatlar uchun yuragini Vatan qilib beradi. Zotan ular uchun shoir yuragidagina joy qolgan edi, shu tariqa shoir yuragi orzudagi Vatanga, ozod Vatan xayollari ko‘milgan zaminga aylanadi.

“Sozim” she‘rida bo‘lsa hurriyat, haqiqat *chechak* bilan timsollashtiriladi: *Tilingan tillarga qon yugurgusi // Bo‘shalgan inlarga jonlar kirgusi // Tikanli bog‘chalar chechak ko‘rgusi // Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilgusi // Jandalar tanimga tekkan kunlarda!..*

Haq yo‘li, haqiqat yo‘li o‘tilgach, tikanli bog‘chalarda hurriyat chechaklarining unishi tabiiy va bu uzoq kutilgan ro‘shnolik. Ammo bularning barchasi uchun yana bir sabab, yana bir haddan oshish kerak. “Jandalar tanimga tekkan kunlar!”, der ekan, Cho‘lpon chirib borayotgan eski hayot, uvadasi chiqqan turmush, erksizlikning chirkin malomatlari jonga tekkan, bu jandadan voz kechiladigan bir kunni – isyon kunini nazarda tutadi. Shu bilan birga, hurriyat uchun men shahid bo‘lgan, jismim jandaga o‘ralgan kunda keladi istiqloq, demoqchi bo‘ladi. “Janda” so‘zini Cho‘lpon mana shunday timsolga aylantiradi. Chechak bandda markaziy timsol, ammo u janda so‘zi bilan quvvatlanar ekan, uning tarovati, go‘zalligi, hayotiy belgilari yana-da bo‘rtib ko‘rinadi.

Davr ijodkorlaridan Elbek “Ko‘mak et” she‘rida Fitrat ta’sirida yorga *nozli chechagim*, deya murojaat qilsa, “Ko‘ngil chechagi”, “Sevgilimga” she‘rlarida gul-bulbul tizimini *chechak-qush* tarzida qo‘llaydi va unda xira bir holatda ijtimoiy mazmun ham anglashiladi. Botu “Hijron to‘lqini” she‘rida yorni *go‘zal chechak*, deb atasa, “O‘zbek qiziga” she‘rida *erk chechagini* boy bermaslik haqida yozadi.

Gul analoglari bo‘lgan *barg // yaproq* ham Cho‘lpon she‘riyatida timsol darajasida ishlangan:

barg – tiriklik, soflik, chinakamlilik, ayni hayot timsoli. “Barg”, “Tabiatning javobi” she‘ri

buning misoli;

titroq barg – muallif obrazi, zamon hukmida titrayotgan shoir qalbi:

Nega yer qo‘yniga tushib qolding,

Yuksak o‘rningdan, ey go‘zal yaproq?

Nega och bag‘rini quchib qolding?

Seni tez so'ldirib ko'mar tuproq! ("Suhbat")

Yoki:

Dam bo'lurki, qalbim tongning shamoli
Qarshisida qaltiragan yaproqdek... ("Damlar")

Yoxud:

...Tanlarimda cho'ziq, og'ir bir titrash
Boshlandi-da yaproq kabi cho'zildim ("Javolash")

Cho'lpon "Katta yo'l bo'yida uchragan yaproq" she'rida ham o'zini changga belangan, titragan varam yaproqqa qiyos qiladi;

sil yaproqlar // sariq yaproqlar // xazon – tutqun, mag'lub Sharq va istibdod ostida juvonmarg bo'lganlardir:

Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar
Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek... ("Kuz")

Yoki:

Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur,
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar... ("Xazon")

Yoxud:

Sil yaproqlar shitirlashib yerlarda
Jon talashib, buralishib yotarlar.
Qora bulut lochinlari qirlarda
Qanot yoyib, erkin quloch otarlar ("Tabiat kitobidan")

Gul *xazon*, *tikon* timsollari bilan poetik qator hosil qilar ekan, *xazon* – visolga yetmagan, bevaqt o'limga yo'liqqan oshiqning an'anaviy ifodasidir. Fitratda, xususan, "Hind ixtilolchilari" asarida *xazon* – g'aflat qo'lida qolgan, ilm-ma'rifatdagi yetakchilik mavqeini boy bergan, istibdodga tushgan yurt farzandlari timsolidir.

Botu 1920-yilda yozgan "Yetar endi!" she'rida Fitrat, Cho'lpon izidan borib, bosqinchilarga qora bulutlar, nur yo'lini to'suvchi parda, deya murojaat qilar ekan, erksiz millatni xazonga qiyoslaydi:

...Parda bo'lib nur sochguvchi yulduzlarning yuziga
Ko'nglimizni kuz chog'ining yaprog'idek qildingiz.

Elbek "So'lg'in chechakka" she'rida baxtsiz kelinchakni so'lg'in chechak, Botu tutqunlik kutayotgan qizlarni o'lim shamollarini kutib turgan yaproqlar tarzida timsollashtirgan.

Tikon – gul-bulbul-chaqirtikanak tizimida keluvchi, oshiq-ma'shuq o'rtasida to'siq bo'luvchi an'anaviy raqib timsoli. *Raqib* – oshiq-ma'shuq-raqib tizimida harakat qiladi. Fitratning Hasrat g'azaliga bitgan muxammasi ishqiy mavzuda bo'lib, raqibga ham shu ma'noda murojaat qilinadi: *Boy berdim tiriklikni fano dashtida mushtoq // Qonolud raqib panjasida bo'ldim o'yinchoq // Shodlikdan yirog'u andug'ga bordim yaqinroq // Hasrat, nasibang ersa jigar qonini yutmoq // Mast bo'lgali paymonai ishrat kimu men kim?! Raqib obraziga bunday an'anaviy yondashuv Cho'lponning "Bahor va men" she'ri, "Bildim endi, shuncha bergan va'dalar yolg'on ekan" matla'li murabbasida ham kuzatiladi.*

Avloniy "Ta'rifi gul" g'azalida zulm tikoni bilan o'rtanayotgan gul bag'rini ifodalar ekan, zulm tikoni – istibdod, gul esa qonga belangan Turkiston ekanligi anglashiladi. Fitrat sochmalarida o'zbek yigiti Vataniga "Zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimga kirs... yana sen sari ketarman", deya hayqiradi. Bu o'rinda temir tikon dushman zulmidan keladigan aziyatlar ma'nosidadir. Raqib – istibdod kuchlari, shuningdek, mute'lik, nodonlik ma'nolariga ham ega. Fitrat sochmalari, Cho'lponning ko'pdan-ko'p she'rlari – buning isboti. "Irfon keladir" she'ridan parcha keltiramiz: *Toza qonlarga ishtaha saqlab // Kutadir yo'lda: och, haris dushman // U ulug' yo'lni nur bilan tozalab // Yetasan istagingga, ey Irfon!*

Malak ham gul kabi ma'shuqani ifodalovchi an'anaviy timsollardan biri. Cho'lpon "Amalning o'limi", "O'zbek qizi uchun", "Uyqu" she'rlarida malaklar, parilar deya Sharq qizlari, onalarini, ko'pincha, foje manzara fonida ifodalasa, "Tabiatga", "Go'zal" she'rlarida Mangu go'zallik; "Xayoli" she'rida Mangu ozodlik ramzi bo'lib keladi. "Xayoli" she'ridan o'qiymiz: *Qulog'imga "ol,*

baxt”, deb eshitilgan // Azonlarni shaytoniy deb o‘yladim // Shuning uchun baxt bergan malakka // Turli-turli afsonalar so‘zladim... // So‘nggi nafas, oxirgi dam, ay malak // Kel, bir qara, so‘ngra yiqilsun falak...

Ruhini ozodlikka olib chiquvchi timsolga o‘tinar ekan, shoir unda, tabiiy tarzda, millat hurriyatini ham ko‘rgan. Adabiyotshunos I.G‘afurov: “Cho‘lponning Malak deb atalmish ajib bir shoirona siymosi bor... Cho‘lpon yolg‘iz Malakdan – ya‘ni ozodlikdan madad o‘tinadi. U esa ro‘yxush bermay devona qiladi shoirni”, deydi [25, b.335-337]. Malak – Cho‘lponda nainki yor, balki millat ayollari; Mangu go‘zallik; hurriyat timsolidir. Estetika yo‘nalishidagi ma‘lum tadqiqotlarda ham Cho‘lpon tasavvuridagi Go‘zallik – hur Turkistondir, degan xulosaga kelingan [29, b.27-28, 92; 2; 24, b.73]. Bu, albatta, nafosatshunoslik me‘zonlariga ko‘ra kelingan xulosalar.

Xulosa. Mumtoz, ma‘rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik adabiyoti yangi o‘zbek she‘riyatiga ta‘sir ko‘rsatdi. Ammo bu yangi she‘riyatning ildizi mumtoz adabiyot chegaralarida qolib ketmadi. An‘anaviy timsollarning an‘anaviy mazmuniga murojaat qilingan bo‘lsa-da, ularning aksariyati mutlaqo yangi ma‘no qatlamiga ega bo‘ldi. Yangi o‘zbek she‘riyatini uning poetik obrazlar tizimiga ko‘ra ham o‘zbek adabiyoti tarixidagi mutlaqo yangi milliy adabiy fikr, yangi milliy adabiy harakat sifatida bohalash mumkin. San‘at va adabiyotdagi yagona obraz – Insondir. Jadid she‘riyatidagi turlicha timsollashtirilgan bu inson – zulm, istibdod ostida ezilgan, kurashayotgan, da‘vat qilayotgan, dod solayotgan va bora-bora yig‘isi ham eshitilmay qolgan, mahv etilgan millat kishisidir. Taraqqiyparvarlik she‘riyati xitob va chaqiriqlar she‘riyati edi, yangi o‘zbek she‘riyati bo‘lsa, ayniqsa, Turkiston muxtoriyati qonga botirilgandan so‘ng, ramziy timsollar, imo-ishoralar she‘riyatiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abulfayzxon. Yo‘qsul o‘lkasining tarixidan besh pardali fojia. – M.: SSSR xalqlarining markaziy nashriyoti, 1924.
2. Айматов А.Қ. Абдулхамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари. Фалс.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2011.
3. Ayniy S. Namunai adabiyoti to‘chik. – M.: Chopxonai nashriyoti markazii xalqi Ittihad jamohiri sho‘ravii so‘siyolisti, 1926.
4. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
5. Веселовский А. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989.
6. Вьюжин Л. Свидетельство о публикации: izba-2017-2016606 (ma‘lumot olingan sana: 17.07.2025; [https:// www.chitalnya.ru](https://www.chitalnya.ru))).
7. Жирмунский В. Вопросы теории литературы. – Л.: ACADEMIA, 1928.
8. Йўлдошев Н. Чўлпон шеърлятида пейзаж. Филол.фан.номз... дисс. – Т., 1994.
9. Каримов Н. Чўлпон: Маърифий роман. – Тошкент: Шарқ, 2003.
10. Каримов Б. Вадуд Махмуднинг 20-йиллар адабий танқидчилигидаги ўрни. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1995.
11. Kocaoğlu T. Çağdaş özbek şiiri // Türk dünyası dil ve edebiyat dergesi. – Ankara: Türk dil kurumu, 1996. Sayı 1.
12. Николаев А. Основы литературоведения. – Иваново: ЛИСТОС, 2011.
13. Основные виды классификации художественных образов (по М. Эпштейну). — Текст : электронный // Myfilology.ru – информационный филологический ресурс : [сайт]. – URL: <https://myfilology.ru/137/osnovnye-vidy-klassifikaczii-xudozhestvennyx-obrazov-po-m-epshtejnu/> (ma‘lumot olingan sana: 17.07.2025).
14. Поэтический словарь. – М.: ЛУЧ, 2008.
15. Пospelов Г. Эстетическое и художественное. – М.: Московского университет, 1965.
16. Тамарченко Д. Литература и эстетика. – Л.: Художественная литература. – 1936.
17. Тимофеев Л. Образ // ЛЭ: В 11 т. Т 8. – М.: Советская энциклопедия, 1934. ([https:// www.chitalnya.ru](https://www.chitalnya.ru))).

18. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Филол.фан.д-ри... дисс. – Тошкент, 2017.
19. Тюпа В. Анализ художественного текста. – М.: Академия, 2009.
20. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. Жилд 3. // Нашрга тайёрловчи ва изохлар муалифи: Ҳ.Болтабоев. Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов ва бошқ.; Масъул муҳаррир: Н.Каримов/. – Тошкент: Маънавият, 2003.
21. Фитрат А. Танланган асарлар (Матн) 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2020.
22. Хализев В. Теория литературы. – М.: Академия, 2013.
23. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. 1 том. – Тошкент, 1976.
24. Ўроқова О.Ж. Чўлпон бадий ижодининг концептуал-эстетик асослари. Фалс.фан.б.фалс.док...дисс. – Тошкент, 2018.
25. Ғафуров И. Ҳаё – халоскор. – Тошкент: Шарқ, 2006.
26. Ҳожи Неъматуллоҳ Муҳтарам. Тазкирату-ш-шуаро. – Душанбе, 1975.
27. Nayit B. Türkistanda öldürülen türk şairleri. – Ankara: Kardeş Matbaası, 1971.
28. Hind ixtilolchilari. Besh pardalik fojiali teatru. – Berlin: muharriri nashri buxoroli Abdurauf Fitrat, 1923.
29. Ҳусанов Б.Э. Шахс ва жамият муносабатларида гўзалликнинг намоён бўлиш хусусиятлари. Фалс.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2002.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729
“СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ
ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ
ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING
A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE
NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000